



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
ADABIYOTSHUNOSLIK KAFEDRASI
“CHINGIZ AYTMATOV VA JAHON ADABIYOTI”



XALQARO ILMIIY-AMALIIY
KONFERENSIYA
МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ
КОНФЕРЕНЦИЯ
INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL
CONFERENCE

FARG‘ONA – 2023

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**CHINGIZ AYTMATOV VA JAHON
ADABIYOTI**

**ЧИНГИЗ АЙТМАТОВ И МИРОВАЯ
ЛИТЕРАТУРА**

**CHINGIZ AITMATOV AND WORLD
LITERATURE**

Farg‘ona -2023

Tashkiliy qo'mita/ Организационный комитет/ Organization committee

**B.SH.Shermuhammadov, I.I.Zokirov, Z.A.Rahimov, E.Ibragimova,
M.Jurayeva**

Ma'sul muharrir/Ответственный редактор/ Executiva editor

Jurayeva Manzura Axronqulovna, f.f.b.f.d. dotsent

Tahrir kengashi a'zolari

Qosimov Abdug'opir – f.f.d., professor
Jo'rayev Habibullo – f.f.d., professor
Sabirdinov Akbarali – f.f.d., professor
Yulchiyev Qahhor – f.f.d., dotsent
Muhammadjonova Go'zalxon – f.f.d., dotsent
Rustamova Ibodat – f.f.d., dotsent
Xo'jayev Sidiqjon – f.f.b.f.d., PhD
Oripova Gulnoza – f.f.b.f.d., PhD
Dehqonova Ma'suma – f.f.b.f.d., PhD
Umurzaqov Rustamjon – f.f.b.f.d., PhD
Ahmadjonova Oqila – f.f.b.f.d., PhD
Mo'minova Tabassum – f.f.b.f.d., PhD
Habibullayev Ilhomjon – o'qituvchi
Sayidolimov Javoxir – o'qituvchi
Maxmidjonov Shoxrux – o'qituvchi

Chingiz Aytmatov tavalludining 95 yilligiga bag'ishlangan "Chingiz Aytmatov va jahon adabiyoti" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Ilmiy nashr. – Farg'ona: FarDU, 2023. – 459

Материалы международной научно-практической конференции "Чингиз Айтматов и мировая литература", посвященной 95-летию со дня рождения Чингиза Айтматова. Научное издание. – Фергана: ФаГУ, 2023. – 459

Materials of the international scientific and practical conference "Chingiz Aitmatov and world literature" dedicated to the 95th anniversary of the birth of Chingiz Aitmatov. Scientific publication. - Fergana: FSU, 2023. – 459

IJODKOR INSON IZTIROBI

Umida Rasulova,

Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti, f.f.d.prof.
rasulovaumida12@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada yozuvchining poetik mahorati borasida mulohaza yuritiladi. Qahramon ruhiyati tahlillar vositasida yoritiladi.

Kalit so'zlar: obraz, ifoda, tafakkur, ruhiyat, talqin.

Аннотация: В данной статье рассматривается поэтическое мастерство писателя. Психика героя освещается средствами анализа

Ключевые слова образ, выражение, мышление, духовность, интерпретация.

Annotation: This article discusses the poetic skills of the writer. The psyche of the hero is illuminated by means of analysis.

Keywords: image, expression, thinking, psyche, interpretation.

Chingiz Aytmatov so'z qadrini e'zozlagan, ardoqlagan faylasuf ijodkor bo'lib, umuminsoniy muammolarni yoritishga sazovor bo'lgan. Adibning "Birinchi muallim" qissasida Duyshen sabru shijoat ila bolalarga yangi dunyo ta'limotini namoyon etib, olamdagi moddiy hamda ma'naviy sarhadga, tafakkur kengliklariga sayr uyushtiradi. Ilk bora tovushu harfning salmog'i, qudratini anglatotgan murg'ak qalbga muazzam ziyo taraladi. Ustoz o'z farzandi yanglig' bolalarga g'amxo'rlik ko'rsatishida obrazning mantig'i oydinlashadi. U insonni qadrlagani, e'zozlagani bois barcha mashaqqatga sobir bo'ladi. Qish qahratonida suv kechib bolalarni yo'lning quruq yeriga o'tkazishi, sovuq sinfxonani isitib, darslarni astoydil o'tishi, muhimi o'quvchilar irodasini mustahkamlashga erishishi obrazning asl muddaosini belgilaydi. O'n besh yosh sag'ir Oltinoyni zolim erkak jaholatidan qutqargan muallim og'ir tan jan jarohatiga qaramay yovuzlikka barham beradi. Muhimi qarindoshdan ko'rilmagan oqibat, adolat ustoz tomonidan ro'yobga chiqadi.

Qissada kishilar o'rtasidagi savodsizlik, jaholatga qarshi ma'rifat masalasi kontrast beriladi. Odam tiriklikni, yaralishdan murod neligini anglamas ekan, haqiqat manziliga yetolmaydi. Asardagi obrazlar orasida qoloq, beburd, loqayd kimsalar qismatiga nigoh tashlansa, ularning bemantiq turmush tarzi ko'lankaga o'xshaydi.

Chingiz Aytmatov ijodida ramziylik, ifodaviylik matn badiiyatini to'yintirib boradi. Qahramon hayoti hamda tasavvurini ma'naviy ilinj ila oziqlantirgan teraklar obrazi poetik mazmuni istifoda etadi. Ustoz Duyshen shogirdi Oltinoy bilan tepalikka terak novdasini o'tqazishida teran tomir, uzilmas rishta chin saodat sururini ravshan aylaydi. Yillar suroni terakka salobat bag'ishlab, kishida ishonch, qat'iyat, matonat tuyg'usini turg'unlashtiradi.

"Ko'cha-kuyda nima ko'p-daraxt ko'p, lekin bu teraklar o'zi boshqa bir olam, qandaydir xosiyatli, tili borday. Goh sohilga kelib urilgan erka to'lqinday eshitilar-eshitilmas guvillashib qo'yadi, goh jim o'ylanib qolib, sog'ina, sog'ina yuragi qon

bo'lganday, allanimalarni eslab xo'rsinib, yulqingan shamol bulut haydab, yomg'ir haydab, butoqlarini egib yuborganda, teraklar bir-biridan madad olib: sindirib bo'psan, deganday battar o'jarlik qilib, zarda bilan to'lg'anib qo'yishadi. To'rt tomoni ochiq baland tepada turishganidan, bular doimo shamol o'qiga to'g'ri kelib havoning har bir o'yiniga javob qaytarib turishgan"⁶.

Adib inson siyratidagi po'rtanalarni nabotot tilsimi qobig'ida pardalaydi. Adl terak olisdan haybatu savlati, turli hodisotga dadil isyoni ila ulug'vorlik kasb etadi. Ikki terak hazin sadosi moziy haqiqatini shamol parvozi-la o'zga makonlarga eltadi, xasta qalb nolasi tiriklik holotidan kuy bastalaydi. Ramzlar ichki vaziyatdan tashqi voqea manzarasiga ishora yanglig' bo'rtib ko'rinadi, so'zlar zamon ruhi, ma'naviy - ijtimoiy iqlimni sifatlashi bilan mohiyatni tiniqlashtiradi.

Chingiz Aytmatovning "Somon yo'li" qissasida qahramon ayol qadrdon yer bilan hasratlashadi. To'lg'anoy: "Yer, jon ato etgan Yer, bizni ko'tarib yurgan Yer, sen bizga baxt bermasang, nega Yer bo'lib atalgansan, biz nechun dunyoga kelganmiz! Biz sening bolalaringmiz, Yer, tilakdosh bo'lg'in, orzu-niyatimizga yetkazgin!" - deydi⁷.

Ma'lumki, Alloh taolo odamni tuproqdan yaratishni ixtiyor etgan. Xokisor yerdan oliy mavjudot bino bo'lgan. Unga nabototu hayvonot ne'matidan bahramandlik nasib bo'lgan. Inson yer, tuproq misoli halim bo'lib, sharafli maqomni yoddan chiqarmasligi darkor. Yer ustida tiriklik sururini his etib, foni dunyo nayrangidan holi bo'lgani durust. Qissadagi dialogu monolog inson hamda tabiatning yaxlitligini anglatishga yo'naltiriladi. Yer ustida turli toifaga mansub kishilar tiriklik gashtini suradi. Ular o'y-xayoli, sa'y-harakati doim ona zamin tomonidan his etiladi. Inson molu davlatga ruju qo'yib halovatdan ayrilishini o'ylamaydi. Tinch totuv hayotni qadrlamay, mudom nafs iskanjasiga qorishib boradi. Yer yuziday keng makon ham insonga torlik qilib, mudom jaholatga chulg'anadi.

Chingiz Aytmatovning "Alvido, Gulsari" qissasida Tanaboy va saman yo'rg'a Gulsari qismati yoritib boriladi. Keksalik va yoshlik-umr fasllari muqoyasa etiladi. Yolg'izlik holati – keksa chol va qari ot ruhiyati, unsiz, so'zsiz bir-birini tinglashi, anglashi ijodiy fantaziya mahsuli. Taxayyul olami assotsiatsiyasi, voqea almashinuvi, o'tmishga retrospektiv yondashuv ma'no qatlamini konkretlashtiradi. Tanaboy chorvador, o'lan aytadi, qir adir tog'-vatanini sevadi. Adib ijtimoiy – estetik qadriyat mohiyatini qahramon fitrati tadqiqi orqali asoslab boradi. Tanaboy mehnatkash, fidoyiligi bois chorva mollarini asrab qoladi. Bu mas'uliyatli vazifani Gulsari bilan uddalaydi.

Yozuvchi tush motividan unumli foydalanadi. Mazkur motivning folklorda ko'p uchrashi ma'lum. Unda xalqning e'tiqodiy qarashi mujassamlashadi. Tush asli fiziologik jarayon, badiiy asarda u poetik mushohada hosilasi bo'lib, biror voqea-hodisadan ogoh etish, taqdirdan bashorat berish funksiyasini bajaradi. Qissada Tanaboy Gulsari bilan bog'liq bexosiyat tush ko'radi: qizil rang, qon

⁶ Айтматов Ч. Танланган асарлар. -Т. Адабиёт ва санъат нашриёти. 1978. 43-б.

⁷ Айтматов Ч. Танланган асарлар. -Т. Адабиёт ва санъат нашриёти. 1978. 102-б.

halokatdan darak beradi. Voqelikning real hayotga monandligi syujet tadrijida kuzatiladi.

Inson va jonzot sinovdan birma-bir o'tib, umri poyonida uchrashadi. Ot sobiq, sodiq xo'jayini qo'lida jon taslim qiladi. Qor, izg'irin, tog' yo'li barcha holat mahzun, g'amgin ohangda sadolanadi. Yo'l xronotopi ramziy ma'noga ega. Asrlar guvohi bo'lmish maskan ibtidodan intihoga qadar tiriklar qavmini sokin kuzatib, oshkoru nihon holatlarga ishora beradi. Inson va jonzot hayoti yo'lini qay tarzda o'tagani, sinoatli dam sabog'i, foniyluk va boqiylik tushunchasi falsafiy ma'no kasb etadi. Gulsari yovuzlik, qabohatni yenggan irodali, sabrli jonzot timsoli. Tanaboy shu yorug'likka, sadoqatga intilgan, undan kuch olgan shaxs. Qahramon dardkashini tirik deya tasavvur etmoq ilinjida ot dupuri qo'shiq yanglig' qalbida abadiy yangrashini ta'kidlaydi. Yozuvchi xalq ijodi, ma'naviy xazinasiga ijodiy sayqal berib, milliy, umuminsoniy qadriyat darajasini oshirgan.

Chingiz Aytmatovning "Somon yo'li" qissasi kompozitsiyasi dialog usuliga qurilgan. Dialog masala mohiyatiga kirish, uch zamon sathida kishi qilmishini tahlil etishga imkon yaratadi. Moziydan saboq uqmagan g'ofil kelajakni yarata olmasligi, hoyu havas girdobidan xalos bo'lolmasligi hayotiy malaka, tajriba qamrovida dalillab boriladi. Tabiat Yer inson To'lg'anoy bilan muloqotida asriy muammo borasidagi qarashlar teranlashadi. Yer kuzatuvchi maqomida odam sa'y-harakatini, kabiru sag'ir xatolarini tahlil qiladi:

"Ey, odamlar dunyoning to'rt burchagida yashagan odamlar, sizga nima kerak-Yermi? Mana men-Yerman, men barcha odam bolasiga yetaman, menga talashishlaringning keragi yo'q, menga inoqlik kerak. Men tugamayman, men xasis emasman, men konman, men hammalaringizga baravar yetaman"⁸.

Mazkur murojaat jami odamzotga taalluqli bo'lib, ona Yer go'yo farzandlari (aslida inson tuproqdan yaralgan), vujudining parchalarini halokatdan ogoh etib, ularni ahillik, birdamlik, yakdillikka chorlaydi. Bezovtalik, xavotirlik hissini sezmagani kishilar aslidan begonalashib, uzoqlashib tubanlik sari yo'naladi. Sahiy Yer imtihon, sinov dunyoda yer, mulk talashayotgan basir, gung Odamlar umrini zoye o'tkazayotganidan tashvishlanib, bariga muruvvat ko'rsatishi, ne'mat yetkazishini eslataveradi.

Yer, tuproq bag'rikengligi bois bani odamga totuvlik, ahillikni ravo ko'radi, unda rizq unadi, jonzotu odam oziqlanadi. Biroq unutuvchi inson mezonni, yaralish muddaosini anglamay kibrga berilib, nafsiga erk beradi. Ayol tinglovchi bari haqiqatni, inson fe'lidagi qusur, nuqsonni tan oladi. Aqlu idrokning xohish, istak tomonidan mahf etilishi nifoqqa imkon tug'diradi. Asosiy masala urush (ichki, tashqi, katta, kichik)ning urchishida nafsi ammora sababligi anglashiladi. Inson bepoyon yer ustida yaralganidan beri talashib, tortishib, qon to'kadi, biroq ko'zi faqat tuproq bilan to'yinishini fahmlamaydi. Asarda urushning inson hamda tabiatga ta'siri zamirida haqiqat ayonlashadi. Aslida ongli yaratiq jaholat olovini yoqib, oqibat uning taftida kuyib tamom bo'ladi, tabiat esa sokin kuzatib qolaveradi. Inson botiniy hamda zohiriy olamidagi o'zgarishlar, folklor va mumtoz adabiy qahramonlar maslagidagi mushtarak tamoyillar yagona yo'lda birlashishi

⁸ Айтматов Ч. Танланган асарлар. - Т.Адабиёт ва санъат нашриёти. 1978.140-б.

mantiqni tasdiqlaydi. Makonu zamon o'rtasidagi tafovutga qaramay qahramonlar intellekti, tafakkuri aro yaqinlik mustahkamlanib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.Айтматов Ч. Танланган асарлар. -Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти. 1978.

MUNDARIJA

I SHO‘BA			
CHINGIZ AYTAMATOV POETIK OLAMI MASALALARI			
1	B.Shermuhammadov	BUYUK IJODKOR	5
2	К.Кожобеков	УРОКИ ПРАВСТВЕННОСТИ АЙТМАТОВА	6
3	А. А.Мамасыдыков, Б.Сыдыкова	УРОКИ АЙТМАТОВА	8
4	N.Sh.Mamasadikov M. Botirov	TIBBIYOT VA BADIY ADABIYOT	15
5	A.Meliboyev	ADIB BILAN TANISHUV	17
6	Y.Solijonov	URUSH MAVZUSIDAGI ASARLARGA YANGICHA QARASH YOKI JAMILANING JASORATI IBRATLIMI?	25
	A.Alimbekov.	SO‘ZGA OSHUFTA ADIB	29
7	E.Ibragimova, S.Abdullayeva.	DUNYO TAN OLGAN ADIB	33
8	A.Qosimov	CH.AYTMATOVNING “OQ KEMA” QISSASIDA MIFOLOGIZM	35
9	A.Ulug‘ov	AYTMATOV BADIY OLAMI	39
10	U.Rasulova	IJODKOR INSON IZTIROBI	43
11	A.Sabirdinov	CHINGIZ AYTAMATOVNING “SOHIL YOQALAB CHOPAYOTGAN OLAPAR” QISSASIDA DAVR MUAMMOLAR TALQINI	46
12	M.A.Jurayeva	AYOL RUHIYATIDAGI EVRILISH	47
13	G.Muhammadjonova	BADIY ADABIYOTDA NABIRA VA BOBO OBRAZI	53
14	Г.Ж.Жамшитова, В.Б.Суркеева	ВЗАИМОСВЯЗЬ ПРОСТРАНСТВЕННЫХ И ВРЕМЕННЫХ КООРДИНАТ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ТЕКСТЕ	56
15	В.В.То‘rayeva	CHINGIZ AYTAMATOV ROMANLARIDA PROSPEKSIYANING POETIK XUSUSIYATLARI	60
16	Sh.A.Normatova, X. O.Mamarizayev, M. N.Shokirova.	“SOMON YO‘LI” QISSASIDA AYOLLAR OBRAZINING O‘ZIGA XOSLIGI	65
17	M.Muxamedova	CHINGIZ AYTAMATOVNING “SOMON YO‘LI” QISSASIDA BADIY PORTRET	71
II SHO‘BA			
CHINGIZ AYTAMATOV IJODI VA TARJIMA MUAMMOLARI			
18	Д.А.Асанова,	ЭПОС «МАНАС» В ТВОРЧЕСКОЙ	75

